

NASIROVA Dildora Talibjonovna,
“Asia kids school” xususiy maktabi
arab tili o‘qituvchisi
nasirovadildora86@gmail.com

MAMLUKLAR DAVRIDAGI ARAB- QIPCHOQ LUG‘ATLARINING O‘RGANILISHI

ИЗУЧЕНИЕ АРАБО- КЫПЧАКСКИХ СЛОВАРЕЙ МАМЛЮКСКОГО ПЕРИОДА

RESEARCH OF ARABIC-QIPCHAK DICTIONARIES IN THE MAMLUK PERIOD

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamluklar, ularning kelib chiqishi, XIII-XV asrlarda ular tomondan Misr hukumatining boshqarilishi, turkiy tillar, xususan qipchoq tilining yuzaga kelishi, uning o‘sha davrdagi ahamiyati, mamluklar davrida fan va madaniyatning gullab yashnaganligi haqidagi ma’lumotlar tadqiq etiladi, hamda Misr, Suriya, Oltin O‘rda va Markaziy Osiyoda yaratilgan arab-qipchoq tilidagi lingvistik va leksikografik lug‘atlar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Misr, Suriya, mamluklar, qipchoq, turkiy til, Oltin O‘rda, yozma yodgorliklar, “Kitabi majmui turkiy...”, “At Tuhfatu az Zakiyyatu...”, “Kitab al idrak...”, “Ash Shuzur az Zahabiya....”.

Аннотация: В данной статье изучается история мамлюков: их происхождение, правление в Египте в XIII-XV веках. Анализируется влияние мамлюков на тюркские языки: в частности, на кыпчакский язык. Описывается значение кыпчакского языка в тот период. Рассматривается расцвет науки и культуры в эпоху мамлюков. Анализируются арабо-кыпчакские лингвистические и лексикографические словари: созданные в Египте, Сирии, Золотой Орде и Центральной Азии.

Ключевые слова: Египет, Сирия, мамлюки, кыпчаки, тюркский язык, Золотая Орда, письменные памятники, «Китаби Маджмуи Тюрки...», «Ат Тухфату аз Закияту...», «Китаб ал идрак...», «Аш Шузур аз Захабия....».

Abstract: This article contains information about the Mamluks, their origin, the management of the Egyptian government by them in the XIII-XV centuries, the emergence of Turkic languages, in particular the Kipchak language, its importance at that time, the flourishing of science and culture during the Mamluks, and Egypt, Linguistic and lexicographical dictionaries

of the Arabic-Kipchak language created in Syria, the Golden Horde and Central Asia are considered.

Keywords: Egypt, Syria, Mamluks, Kipchak, Turkic language, Golden Horde, written monuments, “Kitabi Majmui Turki...”, “At Tuhfatu az Zakiyyatu...”, “Kitab al idrak...”, “Ash Shuzur az Zahabiya....”.

Kirish

O‘zbek xalqining millat sifatida shakllanishiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizdan avlodlarimizga yetib kelgan ilmiy, boy madaniy meroslarni o‘rganish, ular ustida tadqiqotlar olib borish har birimizning vazifamizdir. Qolaversa, qadimgi yozma yodgorliklarning tilini o‘rganish adabiy va umumxalq tilida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishga va tilning lug‘aviy boyligini oshirishga asos bo‘la oladi.

Turkiy tillarning tarixini o‘rganish uchun o‘rta asr Misr va Suriya yozma yodgorliklarini puxta o‘rganish zarur, zero ularni ommaga taqdim etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

XIII asrning boshlariga kelib Misr diyorida mamluklar hokimiyat tepasiga keldi. (arab tilida “mamluk”- mulkka ega bo‘lmagan, oq qullar) Mamluklarning aksariyati mo‘g‘ullar bosqinchiligi davrida Dashti Qipchoq yeridan Misrga sotilgan. Mamluk qipchoqlari XII-XIII asrlarda Ayyubiylar sulolasi hukmdorlik qilgan Qadimgi Arabiston (Misr, Suriya, Mesopatamiya)ning eng ilg‘or, jasur jangchilaridan edilar. Bu qipchoq qullari Misr va Suriyada 250 yil hukmronlik qildilar. Mamluklar davlatining ilk hukmdori Oybek XIII asrda saroyda davlat to‘ntarishini amalga oshirib, Ayyubiylar sulolasining so‘nggi vakili sulton Turonshoxni o‘rniga hokimiyat tepasiga keldi [1, 726–735 b.].

Asosiy qism

Misr mamluklari davri tarixini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) 1250-1382 y.; 2) 1382-1517 y. G‘arb tarixshunos olimlari mamluklarni harbiy toifasiga ko‘ra ikki qatlamga, bahriy va burjiylarga, keyinchalik islom tarixshunos olimlari esa turkiylar va cherkesslarga bo‘lib o‘rganadilar. Ularning fikricha, mamluklar davlati qipchoq sultonlari davrida gullab yashnadi, aksincha, cherkeslar davrida mamlakat tanazzulga yuz tutdi. Ammo aynan mamluklar hukmronligi davrida arab-islom madaniyati mo‘g‘ullar bosqini natijasida yuzaga keladigan ofatlardan omon qoldi. Umuman aytganda, mamluklar davri Misr va Suriya uchun yuksak taraqqiyot davri edi. Aynan,

islom olamidagi to'ntarilish ham shu davrga to'g'ri keladi [2].

1258-yili mo'g'ullar bosqini tufayli Bag'dod halifaligi inqirozga yuz tutdi. O'z navbatida, Bag'dod shahri islom madaniyatining yirik markazi hisoblangan va undagi ko'zga ko'ringan olimlar bu yerlarni tark etib Misr diyorlariga joylasha boshlaganlar, bundan tashqari, g'arbda ham musulmon kuchi zaiflashib, Ispaniyadan turli olimu fuzalolar kela boshlaganlar, shu tufayli Misr asta-sekin fan va madaniyat markaziga aylangan [3, 219-b.].

Arab tarixchisi Amin al Holiyning tarixiy manbalar va hujjatlarga asoslanib yozgan asarlari shuni ko'rsatadiki, arablarning qipchoq tiliga bo'lgan qiziqishi mamluklarni hokimiyat tepasiga kelishi bilan bevosita bog'liq edi. Turkiy tilni o'rganishga bo'lgan bunday ishtiyoq XIII-XIV asrlarda qipchoqlarning ko'payishi natijasida yuzaga kelgan. Mamlakat hududidagi ichki munosabatlar, boshqaruv, ish yuritish va diplomatik aloqalar ona tili (arab)da, qipchoq sultonlari uchun yuborilgan xat va xabarlar esa turkiy tilda yozilar edi [4, 29-b.].

Mamluk qipchoqlari hukmronlik qilgan Misr va Suriyada aholining asosiy qatlami turli millat, xalq va qabilalardan iborat bo'lsada, ularning bari turkiy tilda muloqot qilgan. O'sha paytda "turkiy til" va "qipchoq tili" atamaları sinonim sifatida ishlatilgan.

XIII-XIV asrga kelib hokimiyat tepasiga kelgan qipchoq sultonlarning mavqei tufayli Misr va Suriyada turkiy tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq yanada oshdi. Zotan, arab zodagonlarining qipchoq tilini bilishi yuksak madaniyat egasi ekanligidan dalolat qilar edi. Xattoki, arablarda "Turk tilini bilmagan Allohdan ham qo'rqmaydi" degan gap ham bor edi [5, 11-b.].

Misr mamluk sultonlari uzoq yillar mobaynida Oltin O'rda xonlari bilan diplomatik va do'stona aloqa o'rnatib kelganlar. XIII asrning 30-yillaridan boshlab bundan munosabatlar Misr sultoni Beybarsxon davrida kuchaydi. Xattoki, Oltin o'rda xoni Berka o'z qizini unga turmushga beradi va ulardan Nosiruddin Berka ismli ilk merosxo'r dunyoga keladi [6, 192-b.].

Shu tariqa ikki davlat orasida uzoq vaqt davomida o'zaro elchilar jo'natilar, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun turli qimmatbaho sovg'alar, suluv qizlar almashilinar edi. Shuningdek, ko'pgina Misr va Suriya sayohatshunos olimlari ham Oltin O'rda davlatiga

tashrif buyurishar, ularning asosini Misrning taniqli davlat lavozimlarini egallagan Saroiy, Qrimiy, Xorazmiy kabi taxallusli kishilar edi [7, 20-b.].

Misrda yuksak martabaga ega bo'lgan mamluk qipchoqlari hayotning barcha soxalarida faoliyat ko'rsatdilar, hattoki, o'sha davrda ko'plab arab olimlari qipchoq tilini o'zlashtirib ikki tilli, uch tilli, arab-qipchoq, qipchoq-arab lug'atlarini tuzib chiqdilar.

Atoqli qipchoqshunos qozoq olimi, professor A.K. Kurishjanov birinchilardan bo'lib Qozoqistonda mamluklarning yozma merosini o'rganish tashabbusi bilan chiqdi, qolaversa, XXII Xalqaro sharqshunoslar Kengashi Qaroriga muvofiq ushbu yodgorliklarni o'rganish nafaqat qozoq xalqi balki butun turkiyshunos olimlarning dolzarb vazifalari ekanligi ko'rsatib o'tildi [8, 3-b.].

Yuqorida biz Oltin O'rda va Mamluk davlati o'rtasida doimiy aloqa bo'lganligi va eski qipchoq tilida yozilgan yozma yodgorliklar mavjud ekanligini ta'kidlagan edik. Turkologiya fanida mana shu asarlarning yozilgan hududi haqida bir qancha qarashlar mavjud. Xususan, Oltin O'rda va Mamluk qipchoqlari tomonidan tuzilgan qo'lyozma asarlarning ba'zilarida asarning muallifi, yozilgan joyi, kotibi haqida ma'lumot keltirilmagan. Nima bo'lganda ham, bu ikki davlat o'rtasidagi yozma obidalar o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Bir tomondan qaraganda ularni farqlash juda qiyin, shuning uchun ularni ajratib o'rganish masalasi samarasizdir. Shu bilan birga olimlarning o'sha davrdagi adabiy tilning shakllanishi haqidagi fikrlari biroz osonlashdi desak ham bo'ladi. Masalan, A. Najib shunday deydi: "XIV asrda Oltin O'rda, O'rta Osiyo va Misrda noyob o'ziga xos yozma til vujudga keldiki, bu tillarda yozma adabiyot sezilarli darajada yuqori cho'qqiga ko'tarildi [9, 14-b.]. Mana shu aralash tillar ikki guruh asosida o'rganiladi: 1) z guruhdagi adabiy til yodgorliklari; 2) y guruhdagi adabiy yodgorliklar. Ko'rsatilgan guruhlarning ikkinchisi qipchoq-o'g'uz tili deb ataladi [9, 14-b.].

Ushbu davr yodgorliklarini N.A.Baskakov "Post Mongoliya davri" (XIII-XIV asr) deb atab, ularni adabiy til nuqtayi nazardan 3 guruhga ajratadi: 1) o'g'uz tili xususiyatlariga ega saljuq tili; 2) qipchoq tili elementlarini o'zida aks etgan jo'ji tili; 3) qarluq tili belgilariga ega bo'lgan chig'atoy tili [10, 18-bet].

Saroy, Xorazm, Quyi Volga, Sirdaryoning o'rtalaridagi hududlar va Misrda o'rta asr asarlarini aralash tilda yozgan ko'plab adib va yozuchilarni

uchratish mumkin. O'sha davr yodgorliklari orasida kitob holatida nafaqat diniy yo didaktik mazmundagi asarlar, balki badiiy, huquqiy va harbiy tipdagi adabiyotlar ham uchraydi. Bundan tashqari Misr va Oltin O'rda hududida arab va fors tillaridan tarjima qilingan murakkab asarlarni ham ko'rish mumkin [11, 13-b.].

Ushbu qadimgi qipchoq tili tarixiy jihatdan qadimgi dunyo merosini zamonaviy qipchoq tili bilan, V-VIII asr O'rxun Yenisey yodgorliklarini esa jonli qipchoq tillari bilan bog'aydi. Bu yodgorliklar qadimgi va zamonaviy turkiy tillarning qaysi yo'l bilan va qay holatda yuzaga kelganligini ko'rsatib beradi. Bu noyob qo'yozma asarlar "Aslida qipchoq tili va uning xususiyatlari qanday edi?" degan savolga to'liq javob beradi. Aslida qipchoq tillarini butun tarixini, ularning Ural-Oltoy tillari bilan munosabatini bilish uchun birinchi navbatda o'sha davr haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish darkor. Bu tillarning tarixi qanchalik uzoqqa bormasin, u qadimgi qipchoq tilidan boshlanib yana unga qaytadi. Shuning uchun qipchoq tillari yodgorliklarini o'rganish bugungi kunda tadqiqotchilarning asosiy maqsadiga aylangan.

Umuman olganda, mamluk yozma yodgorliklarini asosiy uch qismga bo'lib o'rgansih mumkin:

- 1) qarluq tili yodgorliklari (sharqiy tillar);
 - 2) o'g'uz tillari yodgorliklari (janubiy tillar);
 - 3) qipchoq tillari yodgorliklari (shimoliy-g'arbiy tillar).
- O'z navbatida so'nggi guruhni yana 2 toifaga ajratish mumkin: a) adabiy til yodgorliklari; b) so'zlashuv tili yodgorliklari.

Bizning fikrimizcha, qadimgi qipchoqlarning yozma merosini nomlanishi va mazmuniga ko'ra uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin: 1) badiiy asarlar ("Husrav va Shirin", "Muhabbatnoma", "Guliston" va bosh.); 2) lingvistik va leksikografik asarlar ("Kitab al Idrak...", "At-Tuhfatu az-zakiyatu", "Ash-Shuzur az-Zahabiya....." va boshqalar); 3) xatlar va ish yuritish qog'ozlari. Bizning tadqiqot ob'ektimiz ikkinchi guruhdagi lingvistik va leksikografik yozma yodgorliklarni o'rganishdan iboratdir. Ularga quyidagi asarlarni kiritish mumkin:

1) Kitob-i majmu-i tarjumon-i turkiy va ajamiy va mug'aliy va farsiy (turk, ajam, mo'g'ul va forslarning tarjima izohli lug'ati). Muallifi noma'lum. Qo'lyozma 1245 yil Misrda yozib tugatilgan. Hozir u Niderlandiyaning Leyden kutubxonasida saqlanadi. Ushbu asar koniyalik Halil ibn Muhammad ibn Yusuf tomonidan

qayta ko'chirilgan. Lug'at 4 bobdan iborat. 1984 yil niderland sharqshunos olimi M.T.Xoutsma qo'lyozmani nashriyotdan chiqardi. Shu sababli ham u "Xoutsma lug'ati" deb ham ataladi.

Uzoq yillar davomida bu kitobning muallifi va yozilgan sanasi aniq bo'lmagan. "Tarjuman"ning yozilgan sanasi 1894-yilda Martin Xautsma tomonidan milodiy 1245-yil deb belgilangan edi. Ammo oradan yetmish yil o'tib, nemis tilshunosi Barbara Flemming uzoq izlanishlardan so'ng kitob 1343-yil 25-yanvarda yozib tugallanganligini aniqlashtirildi [12].

O'zbekistonda bunday tadqiqot o'zbek olimi Abdulla Yunusov tomonidan amalga oshirilgan. U 1973-yilda "XIV asr yodgorligi – "Tarjuman turkiy va ajamiy va mug'aliy (va farsiy)ning tadqiqi" mavzusida kandidatlik dissertatsiyasini yoqlagan. 1980-yilda u "Tarjuman" – XIV asr yozma obidasi" nomli kitobni nashrga tayyorlagan [13].

2. "Kitab al-idrak li lisan al atrak" ("Turkiy til xazinalari kitobi"). Muallifi "Al Andalusiy" tahallusi bilan mashhur bo'lgan Asiruddin Abu Hayyon Muhammad ibn Yusuf al G'arnatiydir. Qo'yozmaning ikki nusxasi mavjud bo'lib, birinchisi Istanbulning Validdin Afandi kutubxonasida saqlanadi. Ikkinchi nusxa esa Ahmad ibn Umar ash Shofe' tomonidan ko'chirilgan bo'lib, Istanbulda nashrdan chiqqan. 1969 yil Qozoqistonda M.A.Majanova "Abu Hayyon-qipchoq tili tadqiqotchisi" nomli kandidatlik dissertatsiyasini, 1969-yil O'zbekistonda esa N.A.Rasulova o'zining "Kitab al-idrak li lisan al atrak" da til tadqiqoti" nomli nomzodlik disertatsiyasini amalga oshirdilar [14].

3. "At-tuhfatuz zakiyya fi lug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa"). Bu noyob tuhfa XIV asrda Misrda yozilgan bo'lib, uni yozgan muallifning ismi ma'lum emas. Asar qo'lyozmasining bizgacha yetib kelgan yagona nusxasi hozirgi kunda Istanbuldagi Boyazid kutubxonasida saqlanadi. Qo'lyozma 91 varaq 182 betdan iborat, har bir betda 7 ta so'zga sharh berilgan va ular 13 ta qatorga joylashtirilgan. 1967 yil polyak olimi A.Dubinskiy yodgorlikning tili bo'yicha maxsus izlanish olib borgan. O'zbekistonda 1968-yil professor A.Mutallibov asarni o'zbek tiliga tarjima qildi. Bundan tashqari M.T.Ziyayeva (Toshkent), T.Arinov (Olmota) lar ham asar ustida kandidatlik dissertatsiyasini amalga oshirdilar [15].

4. "Kitab bulg'at al mushtah fi lug'at at turk va al qipchaq" ("Turkiy va qipchoq tilini

o'rganish uchun yaxshi kitob").Muallifi o'rta asr turkologi, mamluk-qipchoq tili izlanuvchisi, olim, mumtoz arab filologiyasini mukammal egallagan Jamoliddin Abu Muhammad Abdulloh at Turkiydir. Asar tahminan 1450 yili Suriyada yozib tugatilgan. Bir nusxasi Fransiyaning Milliy kutubxonasida saqlanadi. Asarning lug'at qismi fransuz va polyak tillariga tarjima qilingan. 1969 yil o'zbek tadqiqotchisi R.Fayzullayeva, 2004 yil qozonlik G.R.Gaynuddinova, 2000 yil qozoq olimi S.R.Bo'ronboyevlar tomonidan nomzodlik dissertatsiyalari amalga oshirilgan [16]

5. "Ash-Shuzur az-Zahabiyya va al-Qita'i al-Ahmadiyya fi lug'at at-turkiyya"("Turkiy tilning oltin ro'yxati") . Muallifi mullo ibn Muhammad Solih. Asarning asl qo'lyozmasi XVII asrda, tahminan 1619 yilda Misrda yozib tugatilgan, hozir Istanbulda saqlanadi. Asar 1949-yil B. Atalay tomonidan nashr etilgan.

Yuqorida zikr etilgan qipchoq yodgorliklari ustida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, "Ash Shuzur az Zahabiya" asari ustida turli izlanishlar olib borish borasida biroz sustkashlik ko'zga ko'rinadi. Bu esa o'z navbatida asar ustida jiddiy tadqiqotlar o'tkazish zaruriyatini tug'diradi.

Qo'lyozma qipchoq tilining mavqei sustlashib, usmonli turkiy til kuchaya boshlagan paytda yozib tugatilgan. Shuning uchun "Ash-Shuzur az-Zahabiya" Misrda qipchoq tilida bitilgan so'nggi lug'at hisoblanadi. Bu davrdan keyin yozilgan yodgorliklar usmonli turklarning merosi hisoblanadi. Chunki, 1517 yilda usmonli sulton Yovuz I Salim Misr diyorini bosib oladi. Shundan so'ng mamluklar, xususan, qipchoqlar Misr yurtidagi tarixiy maydonni tark etdi va boshqa tarix "sahifalar"iga qaytmadi [17].

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida biz Misr va Suriya hududlarida hokimiyat tepasiga kelgan mamluklar va ular davrida fan va madaniyatning gullab yashnashi, shu davrda qipchoq tilida bitilgan lingvistik va leksikografik asarlarga qisqacha to'xtalib o'tdik. Bunga qo'shimcha ravishda qipchoq tilidagi hozirgi kunga qadar yetib kelgan yana turli mazmundagi asarlar Yevropa va Osiyoning bir qancha fondlarida, kutubxona, universitet va ilmiy markazlarida saqlanmoqda, biroq ularning umumiy soni aniq emas. Shu sababli bugungi kunda xalqimizning boy

madaniy-ma'naviy merosini rivojlantirish yo'lida tilshunoslik soxalarida turli izlanishlar olib borilib, keng jamoatchilika havola etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сайфетдинова Э.Г. Личность султана Бейбарса и его роль в развитии взаимоотношений мамлюкского Египта с Золотой Ордой по Арабским источникам // Золотоординское обозрение. 2017. Т. 5, № 4. с. 726–735.
2. Kopurulzade F. Abu Xayan "Kitab al-idrak". – Istambul, 1931.
3. Ал-Азхар, его история и развитие. – Каир: Изд-во Бакуфов "ал-Ша'б", 1964.
4. Amin al-Xoli. Svyazi mejdu Nilom i Volgoj v XIII–XIV vv. IVL, 1962.
5. Rustemov L. Z. Qazirgi qazaq tilindegi arab-parsi kirmе sezderi. Almati, 1982.
6. Бартольд В.В. Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Алматы: Жалин, 1993.
7. История Казахстана в арабских источниках. I том, Сборник материалов,
8. относящихся к истории Золотой Орды. Извлечения из арабских сочинений, собрание В.Г.Тизенгаузеном. Переработанное и дополненное издание. Алматы: Дайк-Пресс, 2005.
9. Aydarov G., Kurishjanov B., Tomanov M. Kene turki jazba yeskertkishteriniñ tili. – Almati: Mektep, 1971.
10. Nadjip E. N. Kultura i tyurkoyazichnaya literatura mamlyukskogo Yegipta XIV veka. Turkistan, 2004.
11. Баскаков Н.А. Рол уйгуро-карлукского литературного языка караханидского государства в развитии литературных тюркских языков средневековья //Советская тюркология. 1970. № 4.
12. Ibatov A. Qutbtin "Xusrau ua Shirin" poemasinin sezdig. – Almati, 1974
13. Куришжанов А. К. Исследование по лексике "Тюркско-арабского словаря". – Алма-Ата, 1970.
14. Bo'ronov A. O'zbek adabiy tiliga ba'zi so'zlar noto'g'ri qabul qilingan" – XIV asrda uch qit'a so'zlashgan turkiy tilning yozma manbasi "Tarjuman" tahlili. Oyina, Toshkent, 2023. № 2
15. Yesbosinov Ye. Z. Yeski qipshaq tilinin leksika-grammatikaliq yerekshelikter (Abu Xayian yenbegi boyinsha, XIV g.). Almati, 2006.
16. Suyerqul B. M. "At-Tuxfa..."yeskertkishi (XIV g.) tilindegi yetistik kategoriyalari. KDA. – Almati, 1999.
17. Boranbayev S. R. "Turik jene qipshaq tilinin tuistig'i turali" jazba yeskertkishiniñ tili (XIII–XIV g'g.). – Shimkent, 2005.
18. Дж. Олдриж. Каир // Вокруг света. 1969. № 1.